

Kungrad 123 Loyihasi

AIIB-PPM

Osiyo infratuzilma investitsiyalari bankining-
Loyihadan ta'sirlangan shaxslar uchun murojaat
mexanizmi (PPM)



Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi (GRM)


Asosiy maqsadlar:

- Shaffof, madaniy jihatdan mos va genderga sezgir tarzda murojaat qilish imkoniyatini ta‘minlash.
- Shikoyatlarning sud nizolariga aylanishining oldini olish.
- Loyiha va jamoalar o‘rtasida ishonch hamda muloqotni mustahkamlash.
- Muammolarni erta aniqlash va ularni o‘z vaqtida hal etishni rag‘batlantirish.
- Tuzatish choralari tezkor ravishda ko‘rilishi va hujjatlashtirilishini ta‘minlash.


Tomonlarning mas‘uliyatlari:

- ACWA Power CLOlari shikoyatlarni qabul qiladi va ro‘yxatdan o‘tkazadi.
- Tuman hokimiyati hamda mahalliy mahallalar zarur hollarda shikoyatlarni o‘rganish va hal etishda ko‘maklashadi.

Bosqich	Muddat
1. Shikoyatni topshirish	Shikoyat qabul qilinganligi 3 ish kuni ichida tasdiqlanadi
2. O‘rganish va tekshiruv	Ariza taqdim etilgan kundan e‘tiboran 10 ish kuni ichida
3. Hal etish bo‘yicha taklif kiritish	Ariza taqdim etilgan kundan e‘tiboran 12 ish kuni ichida
4. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish	Ariza taqdim etilgan kundan e‘tiboran 30 ish kuni ichida (agar ko‘rib chiqish muddati uzaytirilsa, bu masala ariza beruvchi bilan kelishiladi).
5. Shikoyatni ko‘rib chiqishni yakunlash	Ariza taqdim etilgan kundan e‘tiboran 30 ish kuni ichida (agar ko‘rib chiqish ko‘proq vaqt talab etsa, bu muddat ariza beruvchi bilan kelishiladi).
6. Mediatsiya bosqichi yoki sud organlariga murojaat qilish	Norozilik bildirilganligi to‘g‘risida xabarnoma olingan kundan e‘tiboran 14 ish kuni ichida



Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (GRM) – Aloqa ma'lumotlari



AIIB - PPM

OSIYO INFRATUZILMA INVESTITSIYALARI BANKINING-LOYIHADAN TA'SIRLANGAN SHAXSLAR UCHUN MUROJAAT MEXANIZMI (PPM)

AIIB tomonidan moliyalashtirilgan loyiha doirasida ta'sirlangan shaxslar loyiha tayyorlash va amalga oshirish jarayonida ekologik hamda ijtimoiy masalalar bo'yicha o'z murojaat va e'tirozlarini Buyurtmachi (Client) hamda AIIBga bildirishi mumkin.

Murojaatlar quyida ko'rsatilgan veb-sayt orqali yuborilishi mumkin:

<https://www.aiib.org/en/about-aiib/who-we-are/project-affected-peoples-mechanism/submission/index.html>

Murojaatni to'g'ri rasmiylashtirish va taqdim etish tartibi bo'yicha maslahat olish uchun PPM Kotibiyatiga murojaat qilishingiz mumkin:

Asian Infrastructure Investment Bank (AIIB)
Tower A, Asia Financial Center, No. 1 Tianchen East Road
Chaoyang District, Beijing, China 100101

Email address: ppm@aiib.org
Fax Number: +86-10-8358-0003

